

9-10-2019

## EUPHEMISMS AND THE MEANS OF COMMUNICATION FORMED IN UZBEK SPEECH

Sirojiddin Eshqobilovich Turdimurodov  
*Teacher of Termez state university*

Follow this and additional works at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu>



Part of the [Education Commons](#)

---

### Recommended Citation

Turdimurodov, Sirojiddin Eshqobilovich (2019) "EUPHEMISMS AND THE MEANS OF COMMUNICATION FORMED IN UZBEK SPEECH," *Scientific Bulletin of Namangan State University*. Vol. 1 : Iss. 8 , Article 49. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol1/iss8/49>

This Article is brought to you for free and open access by 2030 Uzbekistan Research Online. It has been accepted for inclusion in Scientific Bulletin of Namangan State University by an authorized editor of 2030 Uzbekistan Research Online. For more information, please contact [sh.erkinov@edu.uz](mailto:sh.erkinov@edu.uz).

---

## EUPHEMISMS AND THE MEANS OF COMMUNICATION FORMED IN UZBEK SPEECH

Cover Page Footnote

???????

Erratum

???????

## **O'ZBEK TILIDA EVFEMIZMLAR MUROJAAT VOSITASI SIFATIDA**

Turdimurodov Sirojiddin Eshqobilovich

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

**Аннотация:**Мақолада эвфемизмлар ва уларнинг асосида ўзбек нутқида шаклланувчи мурожаат воситалари борасида қарашлар баён этилган. Хусусан, табу ва эвфемизмнинг ўзаро алоқадор жиҳатлари, нутқ маданияти нуқтайи назаридан эвфемизмлардан ўринли фойдаланиш борасидаги фикрлар баён этилади.

**Калит сўзлар:** табу, эвфемизмлар, эвфемизмлар ўзбек нутқ маданиятида мурожаат воситаси сифатида.

## **ЭВФЕМИЗМЫ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ КАК СРЕДСТВА РЕЧЕВОГО ОБРАЩЕНИЯ**

Турдимуродов Сирожиддин Эшқобилович

Преподаватель Термезского государственного университета

**Аннотация:** В статье дается обзор эвфемизмов и средств общения, сформированных в узбекской речи. В частности, выражены взаимосвязанные аспекты табу и эвфемизмов, а также рациональное использование эвфемизмов с точки зрения культуры речи.

**Ключевые слова:** табу, эвфемизмы, эвфемизмы как средства обращения в узбекской речевой культуре.

## **EUPHEMISMS AND THE MEANS OF COMMUNICATION FORMED IN UZBEK SPEECH**

Turdimurodov Sirojiddin Eshqobilovich

Teacher of Termez state university

**Abstract:**The article gives an overview of euphemisms and the means of communication formed in Uzbek speech. Specifically, the interrelated aspects of taboos and euphemisms are expressed, as well as the rational use of euphemisms in terms of speech culture.

**Keywords:** taboo, euphemisms, euphemisms as a means of circulation in the Uzbek speech culture.

### **KIRISH**

Ma'lumki, insonning nutq faoliyati asosan, axloqiy normalarga asoslanadi. Axloqiy va madaniy jihatdan qo'llanilishi ta'qiqlangan so'zlar o'rniga boshqa so'z va iboralarning qo'llanilishi **evfemizmlar** (grekcha *euphemeo*– "yaxshi, yumshoq gapiraman" ma'nosida) deb ataladi.

Evfemizmlar narsa-hodisaning ancha yumshoq shakldagi ifodasi sifatida tilning tasviriy imkoniyatlarining boyishi uchun xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy-stilistik farqlanishlar (differensiatsiya) evfemizm turlari va ularning ifodalanish usullarida aks etadi.

Tushunchalarning evfemizatsiyalashuvi masalalariga bag'ishlangan turli tillardagi ishlarni o'rganish bu hodisa yuzasidan bildirilgan nazariy qarashlarni uchta asosiy guruhga bo'lish imkonini beradi.

Birinchi guruh vakillarining fikrlariga ko'ra "evfemizmlar ibtidoiy dunyoqarash (tabu) ta'sirida paydo bo'lib, jamiyatning madaniy bosqichida yo'q bo'lib boradi" [1].

Ikkinchi guruh olimlari "evfemizmlar til fakti, passiv leksik qatlam sifatida mavjud" [2] degan qarashni ilgari suradi.

Uchinchi guruhning mazkur masalaga munosabati N. Ismatullaevning "Эвфемизмы в современном узбекском языке"[3] nomli nomzodlik dissertatsiyasida o'z aksini topgan. Uningcha, evfemizmlar ayni zamonda, nutqiy vosita, uslub uchun ham xizmat qiladi.

### ASOSIY QISM

Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida, ayniqsa, kishilik jamiyatining ibtidoiy bosqichlarida ba'zi bir narsalar, harakatlar man etilgan. Ana shunday man qilish hodisasi *tabu* deb ataladi. *Tabu* so'zi polineziya tilidan (Tinch okeandagi orollarda yashovchi ko'chmanchi elatlar tili) olingan bo'lib, shaxsiy va diniy (totemistik) odatlar jihatdan biror narsani man etish, jumladan, ma'lum hayvonni ov qilish yoki o'simlikni sindirishni man etish bilan bog'liqdir.

Bu hodisa tilda ham uchraydi. Jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida kishilar o'rtasida jin, arvoq va shunga o'xshash ilohiy narsalarga ishonish juda kuchli bo'lgan. Bunday xalqlar jin va arvoqlarga yaqin bo'lgan shaxs yoki predmetning nomi tilga olinmasa, ulardan saqlanish mumkin, deb o'ylashgan. Qadimgi xalqlarda, shuningdek, hozir ham qabila bo'lib yashayotgan elatlarda qabila boshliqlari o'lgandan keyin ularning narsalariga tegish, ularning nomini tilga olish man etilgan. Agar ularning narsalariga tegilsa yoki bu narsalarning nomi tilga olinsa, arvoqlar, jinlar urib ketadi, biror zarar yetkazadi, deb tasavvur qilganlar. Xuddi shuningdek, ayrim yirtqich, zaharli hayvonlarning nomlarini aytish ham man etilgan. Go'yo bunday hayvonlarning nomi tilga olingach, zarar yetkazishi mumkin emish. *Tabu* qoldiqlarini hozir ham uchratish mumkin. Masalan, musulmon ayollari orasida erlarini o'z ismi bilan chaqirishsa, bunday holat erga nisbatan hurmatsizlik sanalgan. Oqibatda, man etilgan so'zlar o'rniga tushunchani ifodalovchi boshqa so'zni ishlatish zaruriyati tug'iladi. Ana shunday man etilgan so'zlar o'rniga boshqa so'zlarning ishlatilishi evfemizmlar shakllanadi. Masalan: *qizamiq* so'zi o'rniga *gul* so'zi, *chayon* so'zi o'rniga *eshak*, *oti yo'q* so'zlarining ishlatilishi evfemizmlar hodisalaridandir. Jamiyat taraqqiyotining keyingi davrlarida dag'al, qo'pol, noqulay so'zlar o'rniga yoqimliroq, silliqroq so'zlarni ishlatish hodisasi ham evfemizmlar ko'rinishlaridandir. Masalan, *o'ldi* so'zi o'rniga *vafot etdi*, *qazo qildi*, *dunyodan o'tdi*, *dunyodan ketdi*, *jonini egasiga topshirdi*, *ko'zi yumildi* kabi so'z yoki so'z birikmalari ishlatiladi.

Evfemizmlar adabiyotda stilistik vosita sifatida katta rol o'ynaydi. Jamiyatning ba'zi bir ijtimoiy guruhlari, mehnat qilmay tekinxo'rlik bilan hayot kechiruvchilar, chunonchi, o'g'ri, bezori va qimorbozlar o'zlarining yomon niyatlarini boshqalardan yashirish uchun so'zlarga har xil ma'no berib qo'llaydilar. Bunday so'zlarga *argo* deyiladi. Masalan,

o'g'irlamoq so'zi o'rniga *ovqatlanmoq*, o'ldirmoq so'zi o'rniga *sallasini olib kelmoq* so'zlarini ishlatadilar.

Evfemizmgga asos bo'lib xizmat qiluvchi nutqiy ta'qiq – tabu insoniyatning yozilmagan eng qadimiy qonuni sifatida ta'qiqlar vositasida paydo bo'lgan. Bu termini ilk bor ingliz kapitani J.Kuk 1777 yilda qo'llagan. Polineziya tilidagi ma'nosi asli "*tapu*", *ta*: (ishoratlamoq, belgilamoq) va *pu*: (diqqatni tortuvchi, insonni chalg'ituvchi) deganidir. Tabu ta'qiqni, jamiyat rivojlanishining turli xil bosqichida yuzaga keladigan muhitni bildiradi. Turli xil shart-sharoitdan kelib chiqqan holda, bunday ta'qiqlar til asosida ham vujudga kelishi mumkin. Din yoki axloq ta'qiqlaridan farqli hisoblangan tabuning paydo bo'lish ildizlari ham uzoq tarix sahifalarida yashiringandir [5].

J.J. Varbotning ko'rsatishicha, *tabu* so'zi bizning zamonimizda ikki ma'noda qo'llaniladi:

1) ibtidoiy odamlarning diniy ta'qiqi, ya'ni yuqori kuchlardan vujudga keladigan zararli oqibatlardan qochishni belgilash;

2) sotsial-siyosiy, tarixiy, madaniy, etnik yoki ta'sirchan dalillar o'zaro bog'liq belgilangan so'z qo'llashni ta'qiqlash [4].

Tabu va evfemizmlar nafaqat adabiy-badiiy asarlarda ishlatiladi, balki ularni to'g'ri qo'llash so'zlovchidan katta mahoratni talab qiladi.

Tilning taraqqiyoti bilan uning evfemik qatlami ham rivojlanib boradi. Yangi axloq-odob, yangicha dunyoqarash normalari asosida tabulashtirishning, shu tufayli qo'llaniladigan evfemalarning ham yangi-yangi formalari maydonga keladi.

Fikrimizni o'zbek tilidagi kundalik turmush tarzimizda faol qo'llaniladigan murojaat bilan bog'liq evfemik vositalar bilan davom ettiramiz. Kishilar o'rtasida ularga nom berish, inson va uning nomi o'rtasidagi munosabatlar insoniyat paydo bo'lishidan boshlab hozirgacha barcha xalqlar e'tiborini tortib kelgan. Nom qo'yish jarayoni insonlarning ezgu niyatlari va maqsadlari asosida amalga oshadi. Biroq turli sabablarga ko'ra ba'zi nomlar qayta tabulashtirilib, yangi evfemik nomlar masalan, laqablar, taxalluslar bilan atalgan. Bu jarayon, qaysidir jihatdan, nutqiy murojaat vositalariga ham tegishlidir.

Murojaat vositalari insonlar o'zaro munosabatlarining ibtidosini tashkil etib, kishilarning dunyoqarashi va har bir davrning nutqiy talablari, shu davr ruhiyatiga moslashib boradi. Ushbu vositalar til egalarining odob-axloqi, bilim darajasi, nutqiy madaniyatida aks etadi. Mana shu jarayon undalma, murojaat vositalari ya'ni vokativ murojaatlarning evfemiklashishiga sabab bo'ladi deb aytish mumkin.

O'zbek tilida evfemik atama yoki murojaatlar quyidagi:

- a) er va xotinning o'zaro va yaqin qarindoshlariga qiladigan murojaatlari;
- b) qarindosh urug'chilikni bildiradigan nomlar;
- c) xudo, payg'ambar, avliyo va pirlarga qilinadigan iltijolar bilan bog'liq tarzda qo'llanilishini ko'p uchratishimiz mumkin.

Masalan, *Dadasi, huuv, dadasi! Tursangiz-chi, kun yoyilib ketdi-ku!* (O'. H., "Vazifa taqsimlash"). *Yaxshilikcha menga javob ber, onasi* (S.S., "Hurmatli o'rtoq rafiqam", 211). *Nutqimizni endi o'rtoqlar deb emas, Azizlar! deb boshlaydigan bo'ldik* (gazetadan). Shuningdek, tilimizda *Xudo* so'zi tabulashtirilmagan bo'lsada, uni takror qo'llashdan istihola qilib, uning o'rnida *Yaratgan, Parvardigor, Tangri, Egam...* kabi evfemik xarakterdagi nomlarga

tez-tez murojaat qilamiz: *Egam joningni omon qilsin* (S.S., “G’alati bir narsa”, 147) va boshqalar.

Atamalardan, xususan evfemik murojaatlardan nutq jarayonida o’rinli foydalanmaslik nutq egasini noqulay vaziyatda (hijolatda) qoldirishi ham mumkin. Masalan; *Bir kuni oqsoch xotin “Rahimjon aka” degani uchun domladan bir tarsaki yedi. Domla; “Minba’d begim degin”, dedi* (A.Q., 1-t., 188). *Sadirjon naobatchi kotib qizga: “Kechirasiz, menga Gulxumor kerak edilar” desa Gulxumor Hamroyevona yoki o’rtoq Xatiboyevona demaysizmi, qanaqa odobsiz kishisiz yoki sahrodan kelganmisiz, dedi. So’ng Siz kimsiz deganda, Sadir aka deng,-deydi. – Idorada unday deb bo’lmaydi-ku, – deydi naobatchi qiz.* (O.Muxtor., Ming bir qiyofa, 159)

Er(im) tushunchasi xotinlar nutqida otasi, dadasi, adasi; umr yo’ldoshim, turmush o’rtog’im, jufti halolim, ko’z ochib ko’rganim, tan mahramim, yorim, begim; xo’jayinim, erkagimiz, bizniki(lar) kabi evfemik vositalarga ega. Ushbu evfemalarning nutqdagi o’rni bir-biridan farqli bo’lib, ba’zilari jonli so’zlashuv, ba’zilari adabiy til, ayrimlari badiiy til, ayrimlari eski til uslubiga xos. *Nusratulla Netayxonning jufti haloli* (A.Q., 4-t., 161). *Uzr, begim Rayhon uyalib, qizarib erining ko’ksiga yuzini bekitdi* (E.Tur., “Bu tog’lar ulug’ tog’lar”, 67).

Erning nomi tabulashtirilmagan hududlarda *hoy, hey, huu* kabi undovlar orqali ifoda qilingan. *Hey deyman, mehmonlar jo’nashyapti* (M. Safarov, “Turnalar”, 19). Er va xotin tushunchalarini ifodalovchi 25 ga yaqin til fakti, nutq vositalariga aylangan evfemalarning har biri o’z qo’llanilish o’rniga ega. Bulardan *turmush o’rtog’im, begim* so’zlari nutq uchun qulay va adabiy tilga aynan mos keladi. Xotin(im) atamasini *ayolim, oilam, onasi, oyisi, ayasi; qalliq, turmush o’rtog’im, rafiqam, hayotim; zavja, zaifa, ojiza, tanmahram* kabi so’zlar bilan almashtirib qo’llanilishini manbalarda, so’zlashuvda ko’p uchratamiz. *Nimaiki yozsam, eng avval oilamga o’g’lim, qizimga o’qib beraman* (O’. H., “Notanish orol”, 12).

Bundan tashqari: *yor, vafodor, gul*, kabi so’zlar evfemik vosita sifatida xotin tushunchasi o’rnida qo’llanilib, badiiy tasvir va ta’sirchan nutq uchun katta xizmat qiladi. *Vafodor yordan ajralmoq – tirik olim demakdir.* (A. Jumaqul, “Yurakka sig’magan gaplar”, 83)

#### XULOSA

Yuqorida ta’kidlanganidek, tilning taraqqiyoti bilan uning evfemik qatlami ham rivojlanib boradi. Yangi axloq-odob, yangicha dunyoqarash normalari asosida tabulashtirishning, shu tufayli qo’llaniladigan evfemalarning ham yangi-yangi formalari maydonga keladi. Til egalarining odob-axloqi, saviyasi, nutqiy madaniyatining ko’zgusi bo’lmish sharqona murojaat shakllari esa, tabiiyki evfemizmlarning mahsuli hisoblanadi.

#### References:

1. Katsev N.I. Evfemizmi v sovremennom angliyskom yazike: Avtoref. diss. dokt.filol. nauk.– L.,1977.– S.21.
1. Ergazieva N.I. Vzaimosvyaz prozish tabu i evfemizmov v kazaxskom yazike// Onomastika Uzbekistana.-Tashkent: IYAL AN Uz SSR, 1989.– S.120.
1. Ismatullaev N. Evfemizmi v sovremennom uzbekskom yazike: Avtoref. diss...kand. filol.nauk.- Tashkent,1963.– 19 s.
1. Varbot J.J. Tabu. Russkiy yazik. Ensiklopediya.– M., 1998. –C.552.
1. Omonturdiyev A. O’zbek nutqining evfemik asoslari. – Toshkent, 2002.